



## PRESS-RELIZ

### **“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati**

(keyingi o‘rinlarda “NKMK” AJ yoki “Kompaniya”)

### **“S&P Global Ratings”dan “Barqaror” prognozi bilan “BB-” darajasidagi birinchi xalqaro kredit reytingini oldi**

**O‘zbekiston, Toshkent shahri, 2024-yil 4-iyul.** “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati o‘z tarixida “S&P Global Ratings” xalqaro reyting agentligi tomonidan birinchi kredit reytingini oldi. Kompaniyaga O‘zbekiston Respublikasining suveren reytingiga muvofiq “Barqaror” prognozi bilan “BB-” uzoq muddatli kredit reytingi berildi.

“S&P Global Ratings” xalqaro reyting agentligi reytingni baholash doirasida bir vaqtning o‘zida Kompaniyaning kreditga layoqatlilik xususiyatlarini (SACP) “bb+” darajasida baholadi, bu bugungi kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi korxonalarini orasidagi eng yuqori ko‘rsatkichdir.

“S&P Global Ratings” xalqaro reyting agentligi reliziga muvofiq, *O‘zbekiston Respublikasida joylashgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ 2023-yil yakuniga ko‘ra 2,9 million unsiya oltin ishlab chiqargan, jahonda to‘rtinchchi yirik oltin ishlab chiqaruvchi korxona hisoblanadi. Kompaniya ishlab chiqarish tannarxining arzonligi va boy resurs bazasi, shuningdek, qarz yukining konservativ ko‘rsatkichlari: aylanma kapitalda o‘zgarishgacha operatsion faoliyatdan pul oqimi (FFO) qarzga nisbatan ko‘rsatkichining 60 foizdan barqaror oshishi bilan ajralib turadi.*

2023-yil yakuni bo‘yicha “NKMK” AJda oltinning bir unsiyasi uchun ishlab chiqarishning umumiy xarajati (TCC) 745 AQSh dollarini tashkil etdi va reyting agentligi baholagan kompaniyalar orasida eng past ko‘rsatkichlardan biridir. “S&P Global Ratings” reyting agentligi relizida oltin narxining qulay konyunktura sharoitida “NKMK” AJ tomonidan kelgusi yillarda yuqori operatsion va moliyaviy ko‘rsatkichlarga erishishi ta’kidlandi.

**Bosh direktorning transformatsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Ye.A. Antonov “S&P Global Ratings” xalqaro reyting agentligi relizini quyidagicha sharhladi:**

“Kompaniyaning birinchi xalqaro kredit reytingini olishi respublikadagi eng yirik korxona rivojlanishidagi muhim bosqich bo‘lib, xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi, korxonaning xalqaro e’tirofini oshiradi hamda butun mamlakatimizda, jumladan, Kompaniyada islohotlar va transformatsiya jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Kompaniyaning



O'zbekiston Respublikasi korxonalari orasida birinchi bo'lib "S&P Global Ratings" agentligi tomonidan "bb+" darajasidagi kreditga layoqatlilik bahosini (SACP) olishi tarixiy voqeа bo'ldi. Bu, xalqaro moliya bozori ishtirokchilarining Kompaniyaning barqaror moliyaviy strategiyasi hamda ishlab chiqarish va investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish rejalariga yuksak ishonchini tasdiqlaydi".

**Bosh direktorining iqtisod va moliya bo'yicha o'rinnbosari J.T. Xasanov:**

"Reytingni olish Kompaniyaning moliyaviy barqarorlik, mustaqillik va shaffoflik tamoyillariga sodiqligini tasdiqlaydi. Kredit reytingini olish jarayonida "Citi" bank eksklyuziv maslahatchi sifatida ishtirok etdi. Ushbu yutuq biz uchun yangi marralarni ochadi, Kompaniyaning xalqaro kapital bozorlariga chiqishiga, yanada barqaror o'sishni ta'minlash va investitsiya jozibadorligini oshirish uchun qulay shartlarda investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashadi", - deya ta'kidladi.

Kompaniya haqida qo'shimcha ma'lumotlar [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz) saytida mavjud.

"S&P Global Ratings" relizi bilan quyidagi [havola](#) orqali tanishish mumkin.

**"NKMK" AJ Matbuot xizmati**